

10-Mavzu: Taqdimotning tuzilishi va dizayni. Taqdimot muharririning interfeysi.

Reja:

1. Taqdimot tayyorlash tizimi (Power Point).

2. Elektron taqdimot: umumiy tushuncha, tuzilishi. Taqdimot tayyorlashning asosiy bosqichlari.

3. Taqdimot tayyorlash dasturlari.

Taqdimot shakllari har xil bo'lishi mumkin: ko'rgazma stendida, savdo paytida yoki do'konda xaridor bilan aloqada, ma'ruza auditoriyasida, televidenie va hokazo. Taqdimot biznesda marketing, jamiyatda jamoatchilik, o'quv jarayonida o'quvchi, talabi va bilim oluvchi bilan aloqa o'rnatish vositalaridan biridir.

Bundan tashqari, u axborotni qulay his qilish uchun tashkil etilgan mavzu, ssenariya va tuzilishga ega.

Taqdimotning o'ziga xos xususiyati uning interaktivligi, ya'ni foydalanuvchi uchun yaratilgan boshqaruv elementlari orqali o'zaro ta'sir o'tkazish qobiliyatining mavjudligidir.

Hozirgi kunda jahonda taqdimot ko'nikmalarini rivojlantirishga ixtisoslashgan ko'plab professional biznes-trenerlar faoliyat ko'rsatmoqda. Ulardan biri rossiyalik Dmitriy Lazarev hisoblanadi. U 1999-yildan beri professional ravishda mashg'ulotlar olib boradi. Uning «Prezentatsiya: Luchshe odin raz uvidet!» nomli kitobida samarali taqdimot uchta elementini ko'rsatib o'tadi:

1. Loyihalashtirilgan slaydlar — ularda imkon qadar – minimal matn, maksimal tasvirlarning vizual

bo'lishi. Aniq va sodda.

2. Taqdimotning matn tarkibi (dalillar, faktlar, isbotlar, his-tuyg'ular, misollar) — og'zaki nutqimizda

bo'lishi kerak. Ammo slaydlarda emas!!!

3. Tarqatish materiallar — jonli ijro kabi bir xil chuqurlik va kenglikka ega bo'lishi kerak. Odamlar proektor rasmlarining ko'zdan g'oyib bo'lishiga emas, balki ular ushlab ko'radigan va o'zi bilan olib ketishi mumkin bo'lgan narsalarga ko'proq ishonadilar. YOzma hujjat hurmatga sazovor. Bundan tashqari, tarqatma materiallar sizning tinglovchilar bilan aloqangizni hujjatlashtiradi.

Ushbu xulosalardan ko'rinib turibdiki, professional tayyorlangan taqdimot barcha katta-kichik auditoriyani hayratda qoldirish imkoniyatini beradi. Bu holat tarixchilar tomonidan taqdimotning mazmuni va mohiyati, maqsadi va vazifalari, uni yaratish va qo'llash bo'yicha kerakli malaka va ko'nikmalarga ega bo'lish bilan birga undan unumli foydalanishni talab qilmoqda.

Shu o'rinda taqdimot, ya'ni «prezentatsiya» atamasiga to'xtaladigan bo'lsak, u lotincha, praesento – taqdimot; praesentatio — taqdim etish (savdo sohasida) degan ma'noni anglatib, biror narsa (tashkilot, loyiha, mahsulot va h.k.) taqdim etish uchun mo'ljallangan hujjat yoki hujjatlar to'plami hisoblanadi.

Taqdimotning asosiy maqsadi – tinglovchilarga taqdimot ob'ekti haqida ma'lumotlarni qabul qilish uchun qulay shaklda to'liq ma'lumot berishdir. Ushbu maqsadga erishish uchun taqdimotlar yaratishga mo'ljallangan barcha dasturlarda matn, gipermatnli havolalar, rasmlar,

grafikalar, videolar, musiqa va ovozlar kombinatsiyasidan tashqari o'ziga xos quyidagi taqdimot elementlari qo'llaniladi:

Animatsiya — bu slaydlarni namoyish qilish va ko'rsatishda ularni samaradorligini oshiruvchi tovush, rang, matn va harakatlanuvchi effektlar va ularni yig'indisi, ya'ni slayda quyilgan ob'ektlarning ma'lum tartibda hosil bo'lishi.

Dizayn qolipi — professional tomonidan oldindan tayyorlab quyilgan grafiklar, buyoqlar, jilolar, tovushlar namunasi bo'lib, ular slaydlarda ishlatish uchun mo'ljallangan.

Slayd — bu prezentatsiyaning alohida kadri bo'lib, o'z ichiga matnni, sarlavhalarni, grafik va diagrammalarni olishi mumkin. Shu bilan u ob'ektlarning kombinatsiyasi shaklida murakkab tuzilishga ega bo'lgan video materiallar sahifasini (ramkani) ko'rsatish uchun ishlatiladi. Slayd ob'ektlari quyidagilardan iborat: fon, matn, jadvallar, grafik tasvirlar, diagrammalar (grafikalar), ko'priklar, videokliplar, ovoz va boshqalar. Slaydlarni namoyish qilishda kompyuter va multimediya proektori talab qilinadi, ularning maqsadi boshqa texnik o'quv qo'llanmalar bilan bir xil.

Tarqatiladigan material — qulay shaklda bosib chiqarilgan va tanishish uchun mo'ljallangan materiallar.

Ranglar sxemasi — bu 8 xil ranglardan tashkil topgan to'plam bo'lib, prezentatsiyalar uchun asosiy ranglar sifatida ishlatiladi. Bularning barchasi taqdimotning mazmuni, sifatini va ahamiyatini boyitadi.

Hozirda taqdimot yaratish uchun paketlar bozori ikki yo'nalishda rivojlanmoqda:

1. Professional bo'lmagan foydalanuvchi uchun taqdimotlarini yaratish dasturlari (masalan, Microsoft kompaniyasining «PowerPoint» dasturi, Corel korporatsiyasining «Corel Presentations», Lotus Software kompaniyasining «Freelance Graphics» dasturi, Software Publishing kompaniyasining «Garvard Graphics» dasturi);

2. Professional yo'naltirilgan va yanada rivojlangan imkoniyatlar bilan ta'minlash dasturlari (masalan, Visual Software firmasining «Visual Reality for Windows», Macromedia firmasining «Action» va «Macromedia Director», Gold Disk firmasining «Astound» dasturi va boshqalar).

Taqdimotlarni belgilangan maqsadga ko'ra qo'yidagicha tasniflash mumkin:

O'quv taqdimotlar. Ular asosan ta'lim sohasida: yangi material taqdimotida talabalarning bilimlarini nazorat qilish, o'quv materiallarini mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun va boshqa o'quv jarayonlarida qo'llaniladi.

Ilmiy-tadqiqot ishlari. Ko'pincha bunday taqdimotlar tadqiqotchilarning chiqishlarida uchraydi. Bunday taqdimotlarning maqsadi ularning ilmiy yutuqlarini e'lon qilishdir.

Portfolio. Odatda, bu muallifning yutuqlari ro'yxatini o'z ichiga olgan mualliflik taqdimotlari. Bunday taqdimotlar slaydlarida odatda turli xil sertifikatlar, nashr etilgan dalillar va boshqalar mavjud.

O'quv materialini taqdim etish usuli asosida 2 turdagi taqdimotlar ajratiladi.

1. Chiziqli, ya'ni o'quv taqdimotlari. Bu taqdimotlarning eng keng tarqalgan turi — ulardan o'qituvchi, uslubchi, tadqiqotchi keng foydalanadi. Texnik jihatdan bunday taqdimotlar juda sodda ko'rinadi — slaydlar boshidan oxirigacha ketma-ket bir-birini o'zgartiradi. Bunday

taqdimotlarning qulayligi aniq - tushuntirish mantig'ini yaratish va materiallarni o'quvchilarga etkazish oson.

2. Chiziqli bo'lmagan yoki interfaol taqdimotlar. Bunday taqdimotlarning materiallari talabning mustaqil o'zlashtirishi uchun mo'ljallangan. Interfaol taqdim etish bunday o'zlashtirishni aniq va qiziqarli qiladi.

Taqdimotlar (prezentatsiya) tayyorlashda eng effektiv va universal vositalardan biri – bu Microsoft Office ilovasidagi — PowerPoint dasturidir. Shu o'rinda PowerPoint dasturi to'g'risida umumiy ma'lumotlarni beradigan bo'lsak ular quyidagilardan iborat.

Microsoft PowerPoint (to'liq nomi – Microsoft Office PowerPoint, inglizcha, power point – ishonarli hisobot) — taqdimotlar yaratish va ularni tomosha qilishga mo'ljallangan dastur bo'lib, Microsoft Officening bir qismi hisoblanadi va Microsoft Windows, MacOS tizimlarida ishlash imkoniyatiga ega.

PowerPoint da yaratilgan taqdimotlar proektor yordamida katta ekranlarda yoki katta o'lchamli televizion ekranlarda ko'rishga mo'ljallangan.

Dasturning yaratilish tarixi. PowerPoint yaratish fikri Berkli universiteti talabasi Bob Gaskins (Bob Gaskins)da paydo bo'ladi. 1984-yil Gaskins «Forethought, Inc.» (1983-yilda tashkil topgan) kompyuter dasturiy ta'minot kompaniyasiga qo'shildi va Dennis Ostin (Dennis Austin) ismli dasturchini ishga yollaydi. Bob va Dennis harakatlarini birlashtirishadi va Presenter dasturini yaratishadi. Dennis dasturning original versiyasini Tom Rudkin bilan yaratadi. Keyinchalik bob dastur nomini PowerPoint deb o'zgartirishga qaror qiladi.

1987-yil PowerPoint 1.0 Apple Macintosh tizimi uchun namoyish etiladi. U oq-qora formatda ishlagan.

Keyinchalik Macintosh ning rangli ko'rinishlari paydo bo'lgan va dasturning ham rangli versiyasi yaratilgan.

1987-yilda Maykrosoft (Microsoft Corporation, Microsoft) kompaniyasi tomonidan Forethought va Power Point 14 mln. AQSh dollariga sotib olinadi. 1990-yil Microsoft Office paketi to'plamidagi Windows uchun versiyasi namoyish qilindi. 2002-yildan boshlab Office XP Power Pointning paydo bo'lishi bilan u Office paketidan alohida ham tarqatilishi mumkin edi. Dasturning versiyalari quyidagi jadvalda o'z aksini topgan.

Uyga vazifa: Slaydlar bilan ishlashni o'rganish.